

INVESTITSIYALARNING QONUN, ME'YORIY HUQUQIY ASOSLARI.

*KURGANOV MUZAFFAR SHUHRAT O'GLI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI, TOSHKENT
SHAHRI, O'ZBEKISTON.
E-mail: muzaffarpolandstudent@mail.ru*

ANNOTATSIYA: Bu maqolada, O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida investitsiyalardan foydalanishning effektiv yo'llari, investitsiya tushunchasining iqtisodiy muqova, investitsiya hajmining ta'sir qiluvchi omillari, investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, O'zbekistonda investitsion muhitni rivojlantirish, sog'liqni saqlash muhitini yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalar investitsiyalar jalb qilish, iqtisodiyot sohalarida investitsiyalardan samarali foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari va investitsiyalarni jalb qilishning istiqbollari, investitsiyalardan iqtisodiyot sohalar va tarmoqlarni rivojlantirish yo'nalishlari, investitsiyalarining iqtisodiyotga ta'siri, tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyalar roli, investitsiya bilan birga turli soha va hududlarga yangi texnologiyalar, tajribalar, mutaxassislar keltirish yo'nalishlari, O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalar samaradorligi yo'nalishlarini ta'kidlaydi..

Kalit so'zlar: Investitsiyalar, investitsion faoliyat, investitsiya muhiti, reinvestitsiya, investorlar, investitsiya manbalari, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish

Investitsion munosabatlarni amalga oshirish va uning huquqiy tizmini tashkil etuvchi qonunlar O'zbekiston Respublikasida qabul qilindi. "Investitsiya faoliyati to'g'risida" va "Chet el investitsiyalari to'g'risida" qonunlarida investitsion munosabatlarga oid jarayonlar va tushunchalar kiritildi. Bu qonunlar investitsiya faoliyatining sub'ektlari va ob'ektlari, davlat tomonidan investitsiya faoliyati tartibga solinishi, xorijiy investorlarning huquq va burchlari, mol-mulk kafolatlari va imtiyozlari kabi mavzularni aniqlik bilan belgilab berdi.

Biroq, qonuniy-xuquqiy bazaning mavjudligi faqat investitsion faoliyatni rag'batlantirish bo'yicha ommabop bo'lmaganligini ko'rsatadi. Shu sababli, investitsion muhitni tubdan yaxshilash uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurdir. Davlat investitsion faoliyatning turli sub'ektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solib turadi.

Investitsion munosabatlarni tartibga solishning yaratilgan qonuniy asoslari "Tadbirkorlik to'g'risida" va "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" qonunlar bilan belgilangan. "Tadbirkorlik to'g'risida" qonuni O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini huquqiy asoslarini, tadbirkorlarning iqtisodiy va huquqiy erkinliklarini aniqlikka

keltiradi va ularning boshqa korxonalar, tashkilotlar va davlat boshqaruvi organlari bilan munosabatlarni tartibga solishiga yordam beradi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" qonuni esa tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy tamoyillarini va tartiblarini belgilab beradi, shuningdek, tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini muhofaza qilishni ta'minlaydi. Bu qonunlar O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga mos ravishda muvofiq huquqiy asoslar yaratish maqsadida qabul qilinmoqda.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunchilik O'zbekiston Respublikasining muayyan qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir. Xalqaro shartnomada boshqa qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu qonunda quyidagi asosiy tushunchalar kiritilgan:

- Investitsiya loyihasi: Investitsiyalarni amalga oshirish yoki jalb etish maqsadida o'zaro bog'liq tadbirlar majmui.
- Investitsiya majburiyati: Investor tomonidan qabul qilinadigan belgilangan maqsadlarga erishish uchun majburiyat.
- Investitsiya siyosati: Investitsiyalar zarur darajada va tuzilmasini ta'minlash, investitsiya manbalarini aniqlash va ulardan foydalanishni oshirishga yo'naltirilgan siyosat.
- Investitsiya faoliyati: Investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirishga oid harakatlari majmui.
- Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi: Investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasida investitsiya amalga oshirishni buyurtmalarni bajarish uchun muomalada ishtirokchilik qiluvchi shaxs.
- Investitsiya shartnomasi: Investitsiya faoliyati subyektlari o'rtasida yozma bitimda belgilangan huquq, majburiyatlar va javobgarliklar.
- Investitsiyalar: Foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga jalb etiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar.
- Investor: Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun mablag'larini investitsiyalarga jalb etuvchi shaxs.
- Mahalliy investorlar: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik fuqarolar va shaxslar, shu jumladan tadbirkorlar.
- Reinvestitsiyalar: Investitsiyalardan olingan daromadlar va boshqa maqsadlar uchun qayta investitsiya qilish.
- To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari: Chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, o'z mablag'larini yoki qarz mablag'larini hisobidan investitsiya qilishi.

- Chet el investitsiyalari: Chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga jalb etiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar.

Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarishda bir nechta muhim chora-tadbirlar o'rnatiladi va ular amalda bajariladi. Bu chora-tadbirlar quyidagilardan iboratdir:

1. Soliq tizimini qulaylashtirish, yani soliq sub'ektlarini, ob'ektlarini va stavkalarini tartibga solish va soliq imtiyozlarini taqdim etish.

2. Amortizatsiya siyosatini amalga oshirish, masalan, tezlashtirilgan amortizatsiya siyosatini qo'llash va amortizatsiya imtiyozlarini berish.

3. Ayrim hududlarni, sohasini rivojlantirish maqsadga dotatsiyalar, subsidiyalar, subventsiyalar orqali yordam ko'rsatish.

4. Kredit siyosatini, davlatning norma va standartlarining antimonopol tadbirlarini ishlab chiqarish, davlat mulkini xususiy lashtirish va narx-navo siyosatini o'tkazish.

5. Yer hamda boshqa tabiiy boyliklardan foydalanish shart-sharoitlarini aniqlash.

6. Investitsiya loyihalarini ekspertizadan o'tkazish davlat dasturlariga kiritish.

7. Investitsiya loyihalarining monitoringini o'tkazish va uning mexanizmlarini ishlab chiqish.

8. Zarur holatlarda yoki qonunlarga muvofiq investitsiya faoliyatini to'xtatib turish, cheklash yoki tugatish.

Investitsiya faoliyatining amalga oshirilishi zarur barcha shart-sharoitlarning, qulayliklarning yaratilishiga bog'liqdir. Bu investitsion muhit, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillarga bog'liqdir. Shuning uchun, iqtisodiy siyosatning o'zida, davlat boshqarish organlarining investitsion jarayonlarini tartibga solishi, iqtisodiyotda davlatning rolini o'z ichiga olganligi, xalqaro bo'sh ishtirok etishi va chet el investitsiyalarini jalb qilish investitsiya muhitini o'z ichiga oladi.[2]

Muhokama

Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim bir rol o'ynaydi, chunki ulardan korxonalarining kapitalni jamg'arishiga yordam beriladi va natijada mamlakatning ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayadi, shuningdek, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Investitsiyalar, iqtisodiy kategoriyada turli funksiyalarni bajaradilar, ularsiz har qanday mamlakat rivojlana olmaydi. Bu jarayonni ta'minlash maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish talab etiladi.

2021 yil 13 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son farmoni qabul qilindi. Kapital bozorini rivojlantirish agentligining ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda joriyda emissiya qilingan aktsiyalarning umumiy nominal qiymati 100

trillion so'mdan ortiq bo'lib, ulardan faqatgina 1,5 foiziga erkin muomalada harakat qilinmoqda. Bu holat O'zbekistonda kapital bozori mamlakat iqtisodiyoti uchun investitsiyalar va jamg'arishlar o'rtasida vositachilik rolini sifat va miqdor jihatdan yuqoriga ko'tarish uchun katta salohiyatga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Davlat rahbari tomonidan "Kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023 yil yakuniga qadar 45 trln. so'mga yetkazish, respublika va hududiy investitsiya dasturlari doirasida loyihalarning qimmatli qog'ozlar chiqarish orqali moliyalashtirilgan qismini 5 foizga yetkazish" vazifalari belgilandi. Institutsional islohotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori bilan 2021 yil 1-maydan Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyati tugatildi va uning qimmatli qog'ozlar bozorini, shu jumladan qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari va Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysini tartibga solish, shuningdek, korporativ boshqaruvni rivojlantirish hamda lotereyalarni tashkil etish faoliyati bo'yicha vazifa, funktsiya va vakolatlari Moliya vazirligiga o'tkazildi. 2021-2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirish dasturida raqobat muhitini shakllantirish va fond bozori likvidligini oshirishni rag'batlantirish bilan bog'liq bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar va kamchiliklar mavjudligi ta'kidlangan, jumladan:

- Davlatning strategik rejalashtirish tizimi mavjud emasligi;
- Erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmiga nisbatan ulushi pastligi (0,3 foiz);
- Fond bozorida amalga oshirilayotgan bitimlarning yuqori qismi (birjadagi hajmlarning 70 foizidan ortig'i) davlat ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri kelishi;
- Qimmatli qog'ozlar bozorining likvidligi pastligi, davlat qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorini rivojlantirish zaruriyati mavjudligi, amaliyotga joriy etilgan moliyaviy mahsulotlar turlari yetarli emasligi, davlat aksiya paketlari «bitta aksiya bitta lot» tamoyili asosida sotilmasligi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qimmatli qog'ozlar bozorida mablag' jalb qilishga bo'lgan qiziqishi pastligi;
- Kapital bozoriga uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ega yirik institutsional investorlarni jalb qilish bo'yicha ishlar sust olib borilishi;
- Bozor infratuzilmasi zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi, shuningdek, ushbu sohada mahalliy tizimlarning imkoniyatlaridan samarasiz foydalanilishi;
- Mintaqaviy darajada kapital bozori infratuzilmasi mutlaqo rivojlanmaganligi;
- Kapital bozori sohasida bozor kapitallashuvini oshirish choralari faol ravishda ilgari surish va amalga oshirishga imkon beradigan yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi;

- Sohoni nomutanosib tartibga solishni nazarda tutuvchi hamda zamonaviy bozor talablariga va xalqaro standartlarga javob bermaydigan huquqiy hujjatlar ko'pligi;

- Korporativ munosabatlar zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilmaganligi.

Ushbu kamchiliklar fond bozorining ulkan salohiyatidan foydalanishga, uning kapitallashuvi va likvidligini lozim darajada ta'minlashga, investitsiyalarni samarali jalb etishga, iqtisodiyot hamda davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalari rivojiga to'sqinlik qilmoqda. [3]

Natijalar

Investitsiyalarni jalb qilish va ularni boshqarish uchun, ularning qonunda tasdiqlangan ma'nosi, shakli, mazmuni va mohiyatini tushunish juda muhimdir. Bu maqsadga erishish uchun O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni muhim rol o'ynaydi, chunki so'nggi yillarda ichki va tashqi investitsiyalarni faol jalb etishga doir qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham investitsiya faoliyatining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Umumiy holatda, bugungi kunga kelib mamlakatimizda investitsiya faoliyatini tashkil etish, rivojlantirish, rag'batlantirish va tartibga solishga oid ko'plab huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan, va ular amalda investitsiya faoliyatining yilga-yilga o'sishi uchun muhimdir.[4]

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, Investitsiya faoliyatini O'zbekistonda tashkil etish, amalga oshirish va rivojlantirishning barcha zaruriy talablari yaratilgan, ular tegishli huquqiy asoslar bilan ta'minlangan va himoyalangan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. 2021-yil 13-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6207-son Farmoni.
3. <http://www.lex.uz> –(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari).
4. Butaev J., Ochilov B. The role of the investment environment in attracting foreign investment //ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH. –2021. –T. 10. –No. 5. –C. 687-697.